

O‘QITISH JARAYONIDA INNOVATSION USLUBLARNI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISHNING TASHKILY JIHATLARI

Tavmuradov Jamshid Elmuradovich

Samarqand temir yo‘l texnikumi o‘quv bo‘limi uslubchisi, yetakchi o‘qituvchi

Norkulov Xasan Xidirnazarovich

Samarqand temir yo‘l texnikumi umumta‘lim fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion uslublardan foydalangan holda to‘g‘ri tashkil etish bugungi kundagi barcha ta‘lim muassasalarining asosiy e‘tibor beradigan nuqtasi bo‘lishi lozim. Chunki, har qanday o‘quv mashg‘ulotining ijobiy samara berishi tanlangan metodga bog‘liq. Qisqa vaqt ichida ko‘proq ma‘lumotni o‘quvchilarga yetkazish va ularning ongiga joylashtirish, tafakkur tarzini rivojlantirishda innovatsion uslublarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu tezisda innovatsion uslublarni qo‘llashning tashkiliy jihatlari tahlil qilib chiqishimizning asosiy sababi shundaki, har qanday o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotini olib borishda an‘anaviylikdan noan‘anaviylikka o‘tishda qiyinchiliklarga, qo‘rquvga tushib qolishining oldini olish, o‘qituvchi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerakligini tahlil qilishdir.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, uslub, tashkiliy ishlar, didaktika, bilim, dunyoqarash, texnologiya, ta‘lim, davlat ta‘lim standarti, o‘qituvchilik kasbi

Ma‘lumki, didaktikaning predmetini o‘rgatish, o‘rganish ta‘lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-birlari bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan birini e‘tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Xo‘sh, nimani nimadan boshlash kerak? Ishni o‘rganish yoki o‘rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug‘iladi: nimani (qanday mazmundagi o‘quv materialini) o‘rganmoqchisiz yoki o‘rgatmoqchisiz? O‘rgatish ham, o‘rganish ham

asosiy maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim ob‘ekti va oxirgi natija mahsuli bo‘lmish ta‘lim mazmuniga bog‘liq.

Har xil mazmun uni o‘zlashtirishning o‘ziga xos usullari bilan farq qilganligi uchun o‘rganishning qanday bo‘lishi uning mazmuniga bog‘liq, bu esa o‘rganishni tashkil etuvchi o‘rgatuvchiga bog‘liq. Shunday qilib, didaktik tafakkur - bu o‘rganish, o‘rgatish va ta‘lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O‘qituvchi o‘quvchini faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta‘lim texnologiyasi» atamaları qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi ham mustahkam o‘rin olmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan tarzda o‘rgatish, o‘rganishda ta‘lim mazmuni asosiy o‘rin tutadi. Shuning uchun ham, o‘z oldimizga Davlat ta‘lim standartlarini yaratish birinchi galdagi vazifa qilib qo‘yildi. Bu vazifaning uddasidan chiqdik. Davlat ta‘lim standartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanib, har bir ta‘lim muassasalariga, har bir o‘quvchiga yetkazildi. Endigi vazifa shu standartlarni tezroq hayotga tatbiq etish mexanizmini yaratishdan iborat.

Biroq, e‘tirof qilish kerakki, hali Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta‘lim innovatsiyalarini to‘plash, ular ichidan faoliyatimizda eng ko‘p samara beradiganlarini tanlash, tajriba-sinovdan o‘tkazish va qo‘llash- joriy etishni yo‘lga qo‘yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmagan edi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta‘lim fanlari bo‘yicha Davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo‘llab - quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo‘lgan ehtiyoj yaqqol ko‘zga tashlandi.

Chunki, Davlat ta‘lim standartlari o‘quvchilar bilimiga qo‘yiladigan majburiy minimal daraja bo‘lib, davr o‘quvchilarga ta‘lim standartlari darajasi talablaridan

oshirib bilim, iqtidor va ko‘nikmalar berishni taqozo etadi. Bu masalani ijobiy hal qilish ilg‘or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko‘rgan holda amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi.

Bundan kelib chiqadigan amaliy hulosasi - ilg‘or ta‘limiy yangiliklarni aniqlash, ularning jamg‘armalarini tashkil etish, sinab ko‘rish, pedagogik amaliyotga joriy qilishning, ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratish masalasining dolzarbligini oshirdi. Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo‘lida bir qator izlanishlar, sa‘y- harakatlar boshlab yuborilgan.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, Davlat ta‘lim standartlari- bu o‘quvchilar bilim saviyasining minimal darajasini belgilaydi, bu darajadan yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun ma‘lum izlanish hamda tashabbus lozim, pedagogik innovatsiyalarni yaratish, shuningdek, ularni boshqarish avvalambor, ana shu dolzarb vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi.

Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o‘rganish, tahlillar ostida eng ko‘p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo‘llash tartibini belgilab beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, buning uchun, innovatsiyalar haqida aniq ma‘lumotlar jamg‘armasini yaratish zarur bo‘lib, buni shartli ravishda innovatsiyalarni «to‘plash» jarayoni deb qabul qilamiz.

Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash bilan uni to‘plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo‘g‘in o‘rtasidagi «Pedagogik matbuot» asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug‘ullanadi.

O‘ylaymizki, ta‘lim texnologiyasi va pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv Davlat ta‘lim standartlarini amalga oshirishda o‘z samarasini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatini olib borishga halaqit beradigan psixologik to‘siqlarni umumlashtirib yangilik kiritishda o‘qituvchilarning ko‘proq qarshilik bildirishini keltirib chiqaruvchi sabablarni ta‘kidlab o‘tish zarur.

Birinchiidan, o‘zgarishning maqsadi o‘qituvchilarga tushuntirilmagan, yashirin, gapning ikki ma’nosi, xavotir va noma’lumlikni keltirib chiqarishi. Noma’lumlikdan qo‘rquv har qaysi yangi usulga o‘qituvchilarni jalb qilmasligi mumkin;

Ikkinchiidan, o‘qituvchilar yangilikni kiritishda rejalashtirish va ishlab chiqarishda qatnashmaganligi;

Uchinchiidan, jamoa an’analarini e’tiborga olmaslik va o‘z ishining odatiy usuliga rioya qilishi;

To‘rtinchiidan, yangi usullarga sub’ektiv munosabat va qo‘rquv, statusni yo‘qotish hislari.

Beshinchiidan, ish hajmining ko‘payishi, o‘qituvchilar faoliyatida o‘zgarishlarni rejalashtirmasligi oqibatida qo‘rqish paydo bo‘ladi.

Yangilik kirituvchi tashabbuskor odam hurmat va ishonchga ega bo‘lmasa. Afsuski, ko‘pincha o‘qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydi. Agar bu insonning hurmati past bo‘lsa, pedagog uning qadrligiga qaramay, bu odamga ishonchsizligi uning g‘oyasiga o‘tkaziladi. O‘qituvchi ijodkorligini shaxsiyatning axloqiy munosabatiga qarab mulohaza qilish mumkin.

O‘qituvchilarga ularning ijodiy faoliyatidagi ma’nosini umumiy yo‘nalishlarini anglashga yordam berish, o‘z imkoniyatlarning rivojlanishini bilish. Bunday tushunchasiz ijodiy faoliyatni kuchaytiradigan mashqlar o‘yin sifatida o‘zlashtiriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan maslahatlar erkin muloqotda, fikr-almashuvda, ijodiy bahslashuvda eksperimental ish jarayonida bo‘lib o‘tishi mumkin.

Demak fanni o‘qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlarini yaxshi o‘zlashtirib olsak va o‘z vaqtida amalga oshirsak ko‘zlangan natijaga erishamiz.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘nalishida salmoqli o‘rin tutadigan shunday qarorlar, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqdaki, endilikda ustoz-murabbiylarning vatan, xalq oldidagi vazifalarini yanada mukammal, sidqidildan bajarishi uchun qulay zamin yaratildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar qachon o‘zining ijobiy samarasini beradi?!

Qachonki har bir o‘qituvchi ustozlik mas’uliyatini yanada kuchli his qilsa va albatta, quyidagi xususiyat va fazilatlarga ega bo‘lsa:

- ✓ O‘qituvchi bilimli bo‘lishi ya’ni o‘z mutaxassisligini chuqur bilishi kerak. Hech bo‘lmaganda shogirdidan uyalib qolmaslik uchun;
- ✓ O‘qituvchi o‘quvchilarga darsdan ko‘zlangan maqsadni to‘g‘ri yetkaza olishi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kerak. Zero, o‘qituvchilik faqat ma’ruza o‘qish emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish hamdir;
- ✓ O‘qituvchi aytgan so‘zini amalda ham bajarishi kerak. Sabab shuki, o‘quvchilar o‘qituvchining hatti-harakatlariga, bajarayotgan ishlariga befarq bo‘lmaydi, ularni kuzatishga harakat qiladi;
- ✓ O‘qituvchi o‘z bilganlarini o‘quvchilarga yetkaza olishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchidan yangi pedagogik texnologiyalardan yaxshigina xabardor bo‘lish talab etiladi;
- ✓ O‘qituvchi har qanday holatda ham o‘quvchilardan biror narsa umid qilmaslik kerak ya’ni o‘z manfaati yo‘lida foydalanish yoki ta’magirlik kabi;
- ✓ O‘qituvchi axloqiy tomondan yuksak fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Sababi shuki, o‘quvchi ko‘pgina fazilatlarni o‘qituvchidan o‘rganadi. Masalan: sabr, jasorat, muloyimlik, yordam, insoniylik, saxiylik, tirishqoqlik va boshqalar;
- ✓ O‘qituvchi o‘quvchilarni har bir mavzu bo‘yicha albatta, muammoli vaziyatlarga solib, undan chiqish yo‘llarini o‘ylab topishga undashi shart. Buyuk nemis faylasufi Kant aytganidek, “Ustoz o‘z shogirdlariga fikrlarni emas, fikrlashni o‘rgatishi kerak”;
- ✓ O‘qituvchi o‘quvchilarga egallayotgan mutaxassisligidan kelib chiqib, alohida yondashishi kerak. Chunki, o‘quvchining o‘zi tanlagan sohasiga yanada qiziqishi oshadi va e’tibori boshqa sohalarga chalg‘imaydi;

- ✓ Albatta, o‘qituvchi ham o‘quvchi ham barcha kerakli ma’lumotlarni yozib borishi kerak. Zero, hadisi sharifda keltirilganidek ilmni yozish bilan mustahkamlab, rivojlantirib borish lozim.

Akademik Qori-Niyoziy shunday degan edi: “Agarda o‘qituvchi bo‘laman desang, eng avval yaxshilab o‘yla: uni sen kasb etib olmoqchi bo‘lasanmi yoki g‘oyaviy mayl va rag‘bating bormi, chunki o‘qituvchilik – kosiblik emas”.

Barcha ta’lim muassasalarida quyidagi jihatlarga e’tibor kuchaytirilsa, innovatsion g‘oyalar shakllanishida albatta, bu o‘z samarasini bermasdan qolmaydi.

1. Har bir o‘quvchi bilan alohida, yakka tartibda ishlash va uning qiziqishini inobatga olish;

2. Tadqiqotchi o‘qituvchi ilmiy ish yoki ilmiy maqola ustida ishlashda albatta, o‘quvchini hamkor sifatida jalb qilishi;

3. Ijtimoiy-huquqiy muammolarni ijtimoiy reklama, roliklar yoki tasvirlarda uning yechimini ko‘rsatib berish;

4. Soha mutaxassislari ishtirokida seminar, treninglar o‘tkazish. Bunda mutaxassis tomonidan bildirilgan g‘oyadan o‘quvchi ilhom olib ikkinchi bir g‘oya zamin yarata oladigan fikrga kelishi mumkin;

5. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatib borish;

6. O‘quvchilarda huquqiy axborot beruvchi manbalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

Demak, fan mavzularini o‘quvchilarga yetkazishda dars mashg‘ulotlarini eng qulay variantda (mavzuga mos pedagogik texnologiya tanlash, metodni to‘g‘ri tanlash va informatsion texnologiyalardan unumli foydalanish orqali) innovatsion uslublarda tashkillashtirish ko‘zlangan maqsadga yetishda o‘z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni.
O‘RQ-637-son 2020 yil 23 sentyabr.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
4. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
5. Mahmudov M. O‘quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
6. Mahmudov M. Ta’lim natijasini loyihalash. «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.